

Yo'qolayotgan iboralar, sukutga cho'kayotgan ma'nolar - ona tilimizning bugungi qiyofasi

Muhiddin Faxriddin-o'g'li Ahmedov
ahmedovmuhiddin7@gmail.com
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va g'arbona madaniy fonida o'zbek tilining sekin-asta o'zgarib borishi, ona tilining milliy ong, ruhiy identitet va tarixiy xotira bilan uzviy bog'liqligi chuqur falsafiy hamda hissiy yondashuv orqali yoritiladi. Muallif tilni shunchaki aloqa vositasi emas, balki millatning ichki qal'asi, madaniy immuniteti sifatida talqin qiladi. Maqolada chet tillarining madaniy infiltratsiya vositasiga aylanishi, yosh avlod ongining asta-sekin begonalashuvi xavfi ochib beriladi va ona tilini asrash - vatanparvarlikning eng oliy ko'rinishi ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: ona tili, milliy o'zlik, ma'daniy mustamlaka, globallashuv, g'arbona tahdid, lingvistik infiltratsiya, milliy ong, til va ruh, vatanparvarlik, yosh avlod, ma'naviy xavfsizlik, til siyosati, milliy xotira, madaniy himoya

Disappearing expressions, meanings drowning in silence - the current image of our native language

Muhiddin Fakhridin-o'gli Ahmedov
ahmedovmuhiddin7@gmail.com
Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract: This article explores, through a profound philosophical and emotional approach, the gradual transformation of the Uzbek language in the context of globalization and Western culture, as well as its inseparable connection with national consciousness, spiritual identity, and historical memory. The author interprets language not merely as a means of communication, but as the inner fortress of a nation and its cultural immunity. The article highlights the danger of foreign languages becoming instruments of cultural infiltration and the gradual alienation of the younger generation's consciousness, arguing that protecting the mother tongue is the highest form of patriotism.

Keywords: mother tongue, national identity, cultural colonialism, globalization, Western threat, linguistic infiltration, national consciousness, language and spirit, patriotism, younger generation, spiritual security, language policy, national memory, cultural protection

Kirish

Biz o'zbek bo'la turib, asta-sekin o'zbekcha his qilishdan voz kechyapmiz. Agar ertaroq harakat qilishni boshlamasak: Bir kun kelib biz o'z bolamizga o'z tilimizda gapira olmay qolamiz.

U bizni tushunadi - lekin yuragi bilan emas, chunki yurak ona tilida uradi.

Bugun biz tilimizni yo'qotmayapmiz, biz o'zligimizni sekin-sekin ijaraga berayapmiz.

Til bu shunchaki so'zlar majmui emas. Til - bu xotira, tarix, g'urur, imon va madaniyatning tirik tanasi. Bugungi xavf: qurolsiz bosqin. Bugun bizga so'zlar bilan hujum qilishmoqda. Reklamalar - chet tilida, qo'shiqlar - chet ruhda, Filmlar - chet madaniyat bilan. Ijtimoiy tarmoqlar - chetcha fikrlash bilan kengaymoqda.

Gohida o'ylab qolaman!

Biz qachon tilimizdan uyala boshladik? Qachon "salom" eskirdi?

Qachon "rahmat" zamonaviy bo'lmay qoldi?

Qachon "ota-ona"dan ko'ra "mom-dad", "pap-mam" shirinroq tuyuldi?

Bu tabiiy jarayon emas. Bu - madaniy infiltratsiya. Bu sekin kiradi. Sezdirilmay joylashadi. Va oxirida: "Sen kimsan?" degan savolga o'zingiz ham javob topa olmay qolasiz. Kelajak havf ostida qoladi.

Bolalar:

"Salom" demayapti - "Hi", "privetchik" deyishayapti.

"Rahmat" demayapti - "Thanks" deyapti.

"Aka" demayabdi "bro" deyishyabdi.

Bu zamonaviylik emas.

Bu - madaniy mustamlaka.

Til - bu millatning ichki qal'asi

G'arb qurol bilan emas, trend bilan, serial bilan, musiqalar bilan kirib kelmoqda.

G'arb bizdan nimani olmoqchi? Ular bizdan yerimizni emas, neftimizni emas, oltinimizni emas...Bizning bolalarimizning ongini olmoqchi.

Chunki kim ongni egallasa -kelajakni egallaydi. Bugun bolalarimiz:

chetcha multfilm ko'radi, chetcha qo'shiq eshitadi, chetcha qahramonga o'xshashni xohlaydi. Ular bizning qulog'imizdan yuragimizga o'tmoqda. Bugun biz: o'zbekcha o'ylab, chet tilida his qilib, chetcha yashab qolyapmiz. Bu eng xavfli holat. Aslida Ingliz tilini bilish - yutuq. O'zbek tilini unutish - yo'qotishdir. Siz chet tilida ish topishingiz mumkin. Lekin ona tilingizda - o'zlingizni topasiz. Vatan - til bilan yashaydi.

Agar ertaga: qo'shiqlarimiz tarjimada, ertaklarimiz dublyajda, bolalarimiz chetcha o'ylab ulg'aysa, kelajagimiz nima bo'ladi. Bugun tanlov kuni. Biz bugun tanlayapmiz:

O'zbek bo'lib qolishmi? yoki global bo'lib shakllanishmi.

Til - millatning ovozi. Agar ovoz o'chsa, millat jim bo'ladi. Bugun biz bir haqiqat bilan yuzma-yuz turibmiz: yoshlarimiz tilida chet so'zlar ko'paymoqda, ona tilimiz esa sekinlik bilan chekinmoqda. Ammo savol shunday:

Bu yoshlarning aybimi yoki zamon bosimimi?

1. Yoshlar ona tilini sevadimi yoki unutmoqdami?

2. Bugungi yoshlar o'zbek tilini bilmaydimi?

Yo'q, ammo ular o'zbekcha fikrlashdan uzoqlashmoqda.

Ular shunday deydi:

"O'zbek tili chiroyli, lekin global emas", "Ingliz tili imkoniyat beradi", "Rus tili qulay".

Bu yerda muammo tilni bilishda emas - tilga bo'lgan ichki ehtiyojning yo'qolishidadir.

Ularning ongiga kirayotgan axborotlarning 80 foizi: inglizcha, ruscha yoki g'arbona mentalitetda.

Til - bu shunchaki so'z emas, Til - bu fikrlash shakli. Kimning tili ustun bo'lsa, o'sha ong hukmron bo'ladi.

3. Yoshlar nima sabab ona tilidan uzoqlashmoqda?

Chunki: Ta'limda xorijiy tillar ustun bolib bormoqda, Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek kontent kam. Yoshlar o'z tilida o'zini topa olmaydi. Chet tillar - muvaffaqiyat ramzi sifatida targ'ib qilinadi.

4. Eng xavfli jarayon: tilga nisbatan befarqlik

Yoshlar shunday deydi: "Qaysi tilda gapirsam nima farqi bor?"

Mana shu jumla - milliy inqiroz boshlanishi. Tilni yo'qotish -

Tarixni yo'qotish. Xotirani yo'qotish-o'zlikni yo'qotishdir.

Qanday qilib yoshni yana ona tiliga qaytaramiz?

Tilni majbur bilan emas - g'urur bilan sevdish kerak.

O'zbek tilida zamonaviy filmlar,

O'zbekcha kuchli blogerlar,

O'zbekcha texnologiya kontenti,

O'zbekcha ilmiy va kreativ platformalar,

Til faqat darslikda emas -trendda bo'lishi kerak.

Agar bobolarimiz tilni saqlamaganida, biz bugun kim bo'lardik?

Ota-bobolarimizning asrlar davom etgan kurashi natijalari:

1. Arab istilosi davrida: tilni yo'qotish xavfi

VIII asrda Movarounnahr hududiga arablar kirib kelgach:

davlat tili - arabcha,

ilm tili - arabcha,

din tili - arabcha bo'ldi.

Ko'plab xalqlar shu bosqichda o'z tilini yo'qotdi.

Lekin bizning bobolarimiz shunday dedi:

“Arabcha - ilm uchun, turkiy - xalq uchun.”

Natijada:

Xalq orasida turkiy til yashab qoldi

Og‘zaki adabiyot saqlandi

Maqol, qo‘shiq, dostonlar uzilmagan

2. Forsiy va saroy bosimi ostida ham til o‘lmadi:

Temuriylar davrida:

Saroy tili - forsha

Diplomatiya - forsha

Adabiyot - forsha

Lekin oddiy xalq, askarlar, dehqonlar turkiycha gapirdi.

Til pastdan yuqoriga saqlanib qoldi.

3. Alisher Navoiy - tilni himoya qilgan qahramon

XV asrda Alisher Navoiy tarixiy burilish yasadi.

U shunday dedi:

Turkiy til fors tilidan kam emas!

Turkiy tilda yuzlab asarlar yozdi

Tilni adabiy darajaga ko‘tardi

O‘zbek (chig‘atoy) tilini davlat darajasiga chiqardi

Bu - madaniy inqilob edi.

4. Rossiya mustamlakachiligi davrida

XIX asrda ruslar kelgach:

Maktablar rus tilida

Ish yuritish ruscha

Davlat tili ruscha bo‘ldi

Ammo: Madrasa, mahalla, masjid va uyda til o‘zbekcha bo‘lib qoldi.

Bobolarimiz bolalariga o‘zbekcha o‘rgatishni to‘xtatmadi.

5. Sovet davrida tilni yo‘q qilish siyosati qanday o‘tdi:

1920-80 yillarda: O‘zbek tili “ikkinchi darajali” bo‘ldi

Rus tili “muvaffaqiyat tili” bo‘ldi. Shaharlarda o‘zbekcha gapirish uyatga aylantirildi.

Ammo: Qishloqlar, oila, og‘zaki ijod va tilni saqlab qoldi.

Agar bobolarimiz ruscha o‘rgatib, o‘zbekchani tashlaganida - bugun til yo‘q edi.

6. Mustaqillik - til uchun qilingan eng katta g‘alaba bo‘ldi

1991 yildan so‘ng: O‘zbek tili davlat tili bo‘ldi

Maktab, hujjat, ommaviy axborot o‘zbekchaga o‘tdi

Bu - asrlar davomida tilni saqlagan avlodlarning g‘alabasi.

Xulosa:

Agar siz bugun: bolangiz bilan o‘zbekcha gaplashsangiz - siz millatni saqlayapsiz.
Agar siz bugun: tilini himoya qilsangiz - kelajakni qurayabsiz.
Demak siz vatan himoyachisiz. Zero hech qachon unutmang:
“Tilini yo‘qotgan xalq - tarix sahifasidan o‘chadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асмолов А.Г. Психология личности. – Москва: Академический проект, 2020.
2. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Педагогика, 2019.
3. Выготский Л.С. Психология развития подростка. – Москва: Смысл, 2018.
4. Karimova V.M. Yosh psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. Кон И.С. Психология ранней юности. – Москва: Просвещение, 2019.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Академия, 2017.
7. Qodirov A. Yoshlar va huquqiy tarbiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
8. Rasulova M. O‘smirlik davri psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
9. Yo‘ldoshev J., & Usmonov, B. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent: Adolat, 2017.
10. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2019.